

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.S.Turdiyev	
O'rta asr mutafakkirlarining jamiyat ideosferasi yangilanishi to'g'risidagi falsafiy qarashlar tahlili	182
B.E.Xusanov	
Tarbiya klasterlarining estetik tamoyillari	187
F.M.O'sarov	
Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va unda jamoat xavfsizligini ta'minlash mezonlari	190
F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformasiya jarayonlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	193
Sh.Sh.Dadaxanov	
O'zbekistonda ichki ishlar idoralari faoliyatida xalq manfaatlarini tamoyilini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	201

SIYOSAT

J.Q.Yusubov	
Davlat xizmatida yetuk kadrlarni shakllanishi – mamlakat taraqqiyotining asosi	206
B.Yalgashev	
“Siyosiy falsafa” va “Siyosat falsafasi” o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari.....	210
A.Xamdamirov	
Fuqarolik jamiyati bilan bog'liq zamonaviy konsepsiyalarning mohiyati	214

TARIX

B.A.Usmonov	
Amir Temurning Xitoy yurishiga oid ba'zi mulohazalar	219
A.H.Адигезалов	
Сотрудничество Узбекистана и Азербайджана в рамках гууам	224
F.X.Utayeva, M.A.Muxamedjonova	
To'qimachilik sanoatining rivojlanishida xotin-qizlarning o'rni	231
A.H.Boltayev	
V.A.Shishkinning shaxsiy arxiviga bir nazar	235
G'R.Mirzayev	
Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida O'zbekistonning yaqin qo'shnichilik va o'zaro ishonchga asoslangan hamkorligi	239
O.N.Nasirov	
Mustaqillikning dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi	249
O.I.Rajabov	
Shifobaxshlik xususiyatiga ega bo'lgan ziyoratgohlar	253
П.Х.Исмоилова	
Деятельность отделения русско-азиатского банка в туркестане в конце XIX в начале XX века	257
H.S.Yusupov	
Otaniyoz Xo'janiyoz o'g'li Niyoziyning mudarrislik faoliyati	262
Sh.Y.Oxunjonova	
Toshkent shahri bozorlarida savdo va xizmat ko'rsatishda band bo'lgan aholining ijtimoiy tarkibi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1990-2024 yillar).....	265
A.R.Nurmatov, D.X.Boydedyev	
Imom al-Buxoriy- buyuk muhaddis olim.....	272
П.Х.Исмоилова	
Банковская деятельность в Ферганской долине: возникновение и ее предпосылки в XIX—XX веках.....	276
G.X.Xasanboyeva	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligidagi sug'orish tizimi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1950-1970 yillar).....	281

**DAVLAT XIZMATIDA YETUK KADRLARNI SHAKLLANISHI – MAMLAKAT
TARAQQIYOTINING ASOSI****СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ В СФЕРЕ
ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ В УЗБЕКИСТАНЕ****DEVELOPMENT OF PERSONNEL TRAINING SYSTEM OF PUBLIC SERVICE IN
UZBEKISTAN****Yusubov Jamshid Qadamovich¹**¹Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Huquqiy fanlar kafedrasida dotsenti,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD)**Annotatsiya**

Maqolada davlatchilik tarixida kadrlar tayyorlashning milliy ildizlari hamda mamlakatimizda davlat xizmati sohasida kadrlar tayyorlash borasidagi yangi tizimning rivojlanish jarayonlari tavsiflangan. Shu bilan birga mamlakatimizda davlat xizmati kadrlari tizimining shakllanishi va ular faoliyati samaradorligini yanada oshirish bilan bog'liq siyosiy, huquqiy-mehyoriy manbalar mazmuni ochib berilib, davlat xizmati kadrlarini yuksak mashuliyat va vatanparvarlikka asoslangan faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflar ham ishlab chiqilgan.

Аннотация

В статье охарактеризованы национальные корни подготовки кадров в истории государственности, а также процесс развития новой системы подготовки кадров в области государственной службы в нашей стране. Вместе с тем раскрыто содержание политических, нормативно-правовых источников, имеющих отношение к формированию системы подготовки кадров для государственной службы и дальнейшему повышению их деятельности, а также разработаны предложения по дальнейшему совершенствованию основанной на высокой ответственности и патриотизме деятельности кадров государственной службы.

Abstract

This article describes the national roots of personnel training in the history of statehood and the development processes of the new system of personnel training in the field of public service in our country. At the same time, the content of political, legal and regulatory sources related to the formation of the system of public service personnel and the further improvement of their activity in our country was revealed, and proposals aimed at further improving the activities of public service personnel based on high responsibility and patriotism were also developed.

Kalit so'zlar: kadr, kadrlar siyosati, davlat xizmati, islohot, davlat xizmatchisi, davlat boshqaruvi, rahbar kadr, davlat fuqarolik xizmati.

Ключевые слова: кадры, кадровая политика, государственная служба, государственный служащий, реформа, государственное управление, руководящие кадры, о государственной гражданской службе.

Key words: personnel, personnel policy, public service, public servant, reform, public administration, managerial personnel, on public civil service.

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, barcha sohalar qatorida davlat xizmati kadrlarini tayyorlash bo'yicha tahlil tizimini tubdan isloh qilish, kadrlar tayyorlashning milliy modelini yaratish borasida keng ko'lamli islohotlar boshlab yuborildi. O'zbekistonda davlat xizmatida kadrlar tayyorlash taraqqiyotini yuksaltirishga mo'ljallangan strategik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda davlat xizmati kadrlarini tayyorlash tizimini o'rganish jarayonida "kadrlar", "davlat xizmati kadrlari", "rahbar kadrlar", "tizim", "davlatning kadrlar siyosati" kabi tushunchalarni o'zaro bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'z nutqlarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning taqdiri ko'p jihatdan davlat xizmati kadrlari masalasiga bog'liqligini, davlat, xalq xizmatidagi kadrlar bu islohotlarni teran anglaydigan, jonkuyar, vatanparvar bo'lishi, yurtni, xalqni o'ylashi, el-yurt manfaatlarini ko'zlab, yuragidan o'tkazib fidoyi bo'lib ishlashga tayyor bo'lishi va kadrlar siyosatini isloh etish zarurati, shuningdek, bu jarayondagi tizimli nuqsonlar haqida bir necha marotaba alohida to'xtalib o'tgan[3. Qarang: www.president.uz].

Davlat xizmati siyosiy institut sifatida ijtimoiy amaliyotning maxsus turini ifodalaydi. Bu oxir-oqibatda fuqarolar erkinligi va qonuniy huquqlarini tahminlash, ularning xavfsizligi va munosib hayoti uchun qulay sharoitlar yaratish imkonini beradi. SHu bilan bir qatorda, davlat xizmati faqat huquqiy emas, balki axloqiy tizim ham bo'lib, u bir vaqtning o'zida zarur axloqiy qadriyatlarini saqlab qolishga ham xizmat qiladi, davlat xizmatchilari va fuqarolarini axloqiy mehyorlar va insoniy hamjamiyatning

SIYOSAT

qoidalariga amal qilishni o'rgatadi. Bu o'rinda ikki fenomenning ahamiyati katta, yahni: birinchidan, davlat xizmati davlat siyosatini amalga oshiruvchi ijtimoiy institutlar bilan chambarchas bog'liq. Bular oila, sog'liqni saqlash tizimi, ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik va tadbirkorlik tizimlari va boshqalar. Davlat xizmatining mazkur fuqaroviy jamiyat tizimlariga tahsiri adolatlilik, har bir inson qadriyatini hurmat qilish, halollik va hokazo axloqiy tamoyillar asosida harakat qilishga qodir bo'lgan kadrlar orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, davlat xizmatining ijtimoiy xususiyati quyidagi miqyoslarda namoyon bo'ladi: jamiyat miqyosida (ijtimoiy institutlar tabiati, uning maqsadi va vazifalari); davlat xizmatchilarining ijtimoiy qadriyatlarini miqyosida (qoidalar, majburiyatlar, an'analar, me'yorlar); alohida davlat xizmatchilari faoliyatini baholash miqyosida (ijtimoiy mavqe, nufuz, imij, reyting). Ularning o'ziga xosligi davlat xizmati axloqiy tamoyili va me'yorlari orqali amalga tatbiq etilishida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev demokratik tamoyillarning bevosita davlat xizmati kadrlari dunyoqarashi bilan uyg'unligiga e'tibor qaratib, quyidagi fikrni bildirdi: "Biz hayotda o'zini to'la oqlagan "Islohot – islohot uchun emas, avvalo, inson uchun", degan tamoyildan kelib chiqqan holda, ijtimoiy sohadagi islohotlarni, xalqimizning hayot darajasi va sifatini yuksaltirish yo'lini davom ettiramiz. Ya'ni, taraqqiyotning "o'zbek modeli" tarkibidagi mashhur besh tamoyildan biri bo'lgan kuchli ijtimoiy siyosat yuritish printsipiga qathiy amal qilamiz"[2. 21-bet]. Bu ayniqsa, davlat xizmati sohasida faoliyat yuritayotgan kadrlarga, xususan, boshqaruv xodimlariga ham tegishli bo'lgan talabdir. Mamlakatimizda barpo etilayotgan yangi jamiyatimiz hayotida ezgu qadriyatlarni qaror toptirishda mahalliy davlat hokimiyati institutlari faoliyati ustidan kuchli nazorat tizimi o'rnatilib, vakolatlari ham oshirildi.

Davlat xizmatining turli-tuman usullari va ularning xususiyatlarini umumlashtirib, mamlakatimiz hududida tarixan shakllangan davlatlarda davlat xizmatiga oid talablarni tasniflash mumkin. Davlat xizmati va boshqaruv tizimining shakllanish bosqichlari ierarxiyasi quyidagilardan iborat: 1) ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnatdagi ishtiroki; 2) tashqi harbiy bosqinlardan himoyalaniishi; 3) jamoadagi urf-odatlarini bajarilishi; 4) davlat va jamiyat ishlarini tashkillashtirish, tartibga solish va nazorat qilinishi; 5) jamoatning ichki va tashqi munosabatlarini boshqarib turishi va boshqalar. Jamiyat va davlat boshqaruvi masalalarini hal etishda mutasavvufklar ham chetda turmaganlar.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda barcha jabhalarda bo'lgani kabi davlat xizmati kadrlari siyosatida ham zamonaviy, demokratik tamoyillarga asoslangan tub o'zgarishlar izchil ravishda amalga oshirildi. 1995-yildan boshlab mamlakatimizda 30 ga yaqin turli soha boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ixtisoslashgan akademiya, institut, boshqarma va markazlar, hususan Davlat boshqaruv akademiyasi[Qarang: 8.], shuningdek, Adliya vazirligi huzurida Davlat xizmatlari agentligi va uning hududlarda markazlarini tashkil etilishi[5. Qarang: www.lex.uz] ni davlat xizmati kadrlari siyosatidagi muhim yutuqlardan biri sifatida baholash mumkin.

O'zbekistonda ham bugungi kunda davlat xizmati kadrlari siyosati masalasiga jiddiy ehtibor qaratilib, ularning faoliyati mustaqillik yillarida qabul qilingan qonunchilik, xalqaro huquqiy hujjatlar va O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev topshirig'iga muvofiq, 2018-yil 1-iyulga qadar "Davlat xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish vazifasi belgilab berilgan edi, lekin bu belgilangan muddatda qabul qilinmadi. Ammo bugungi kunda uzoq yillardan beri kutilayotgan muhim hujjat, yahni 10 bob, 64 ta moddani o'z ichiga olgan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RBQ-788-son Qonuni qabul qilinib, unda davlat fuqarolik xizmatining asosiy printsiplari aniq belgilab berilgan, yahni, ular quyidagilardan iborat: davlat fuqarolik xizmati tizimining yagonaligi va barqarorligi; qonuniylik; adolatlilik; xalqqa xizmat qilish; davlat organlarining va mansabdor shaxslarning jamiyat hamda fuqarolar oldida mashulligi; inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; ochiqlik va shaffoflik; xolislik, professionallik va kompetentlik; davlat fuqarolik xizmatiga kirishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning teng huquqliligi; davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi[1. <https://lex.uz/docs/6145972>].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida Mahmuriy islohotlar kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5185-sonli Farmoni davlat xizmati sohasiga oid mehyoriy-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash hamda

davlat xizmati sohasiga doir tushunchalarning mazmun-mohiyatini ochib berishga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Unga muvofiq, mamlakatimizda "davlat xizmati kadrlari" tushunchasining mazmun-mohiyatini to'liq ochib berish, professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish va uni takomillashtirish, bu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni aniq belgilash, ularning tashkiliy-huquqiy asoslarini ishlab chiqishga juda katta ehtibor berilmoqda[5. Qarang: www.lex.uz].

Bugungi kunda, ortiqcha mahmuriy tartib-taomillarni bartaraf etish, idoralararo elektron hamkorlikni rivojlantirish maqsadida davlat xizmatlari ko'rsatish uchun zarur hujjat va axborotlarni tezkorlik bilan olishni tahminlovchi yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali davlat xizmatlari ko'rsatish amaliyoti kengaytirilib, xizmatlarni masofadan elektron tartibda ko'rsatishga oid ishlar amalga oshirilmoqda. SHuningdek, endi xalq davlat idorasiga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak, tamoyili, ayniqsa, davlat xizmati kadrlarining xalq xizmatkori bo'lishi, uning faoliyati fuqarolar manfaatlariga asosida kechishi, xalq farovonligini tahminlash vazifasi ular faoliyatini baholashning asosiy mezoniga darajasiga ko'tarildi. Umuman, so'nggi davrda qabul qilingan Qonunlar, Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan imzolangan bir nechta Farmon va Qarorlar, mahruza va asarlarida[Qarang: 6. 7.] da bildirilgan fikr-mulohaza va vazifalar davlat xizmati kadrlari potentsialini oshirish va zahirasi bilan ishlashda davlat organlari faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish jarayonlarini zamonaviy mehyorlar, milliy anhana va demokratik qadriyatlar uyg'unligi asosida olib borishda dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish yangicha asosda tashkil etilib, tashkilot va tuzilmalar bevosita joylarga, mahallalarga chiqib, aholining real muammolarini chuqur o'rganish, tasniflash asosidagi davlat xizmatlari va sayyor davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yildi. Davlat xizmati kadrlarini muvaffaqiyatga erishishida "har bir davlat xizmatchisi har kuni o'zining mehnati bilan egallab turgan lavozimiga loyqligini isbotlashi shart"[4. 3-bet.]ligi bugungi kunda davlat xizmati sohasidagi kadrlarning asosiy vazifasiga aylandi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo'nalishidagi "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirishga kirishildi. Yurtimiz fuqarolari davlat va jamiyat hayotiga daxldor muhim masalalar bo'yicha o'z fikrlarini bildirishlari, savollariga javob topishlari hamda huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha advice.uz va regulation.gov.uz saytlari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Oliy Majlis internet tarmog'ida "Mening fikrim" deb nomlangan maxsus veb-sahifa tashkil etilgan va joylarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonalarini tashkil etilishi o'ziga xos institut sifatida eng muhim yangiliklardan biri bo'ldi. Natijada davlat hokimiyatining aholi bilan samarali muloqoti tashkil etilib, fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqishning sifat jihatidan yangi tizimi yo'lga qo'yildi va "Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyili asosida davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi shakllantirildi. Qonunlar loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida ularni aholi o'rtasida keng muhokama qilish, fikr va takliflarni quyidan, yahni, fuqarolardan olish tartibini samarali amalga oshirish hamda normativ-huquqiy hujjatlarni hayotga qanday tatbiq etilayotganini o'rganish maqsadida Oliy Majlis huzurida Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti o'z faoliyatini boshladi.

Davlat xizmati kadrlari faoliyati samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi quyidagi xususiyatlarga nisbatan ijtimoiy ehtiborni oshirish lozim: har bir xodim o'zini tashkilot uchun ahamiyatli shaxs, jamoaning haqli va arziqli ahzosi sifatida anglashlariga erishish; davlat xizmati tizimida amalga oshirish kerak bo'lgan har qanday vazifani jamoaning tashabbusiga aylantira olish; rejalashtirish borasida shakllangan faoliyatga mos ravishda axloqiy qadriyatlarning takomillashtirilishiga erishish; amalga oshirilayotgan ishning bir necha bosqichdan keyingi holatini yaxshi tasavvur qila olish; yaxshi natija olish uchun xodimlarni ishni bajarishga ixtiyoriy yo'naltirish, bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishda rejalashtirilgan ishlarni to'g'ri taqsimlash; davlat xizmatida to'g'ri qaror qabul qilinishi amalga oshiriladigan ish samaradorligiga jiddiy tahsir ko'rsatishini doimiy ehtiborda saqlay bilish va boshqalar.

XULOSA

Davlat xizmati sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish jarayonlarini o'rganish quyidagi xulosalarni ilgari surish imkonini berdi:

1. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat xizmati sohasi uchun kadrlar tayyorlash siyosati natijasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlaridan kelib chiqib ustuvor strategik yo'nalishlar ishlab chiqildi. Davlat xizmatini ishonchli, yuksak mahnaviyatli va yetuk mutaxassislar bilan tahminlash tizimi belgilandi. Ular tomonidan nafaqat o'zining kundalik faoliyatidagi vazifalarni bajarishlari, balki, o'zlarining xulqi bilan davlat boshqaruvi organlari, davlat obro'-ehtiborining oshishiga xizmat qilishi zarur ekanligini anglashdan iborat nazariy qarash shakllantirildi;

SIYOSAT

2. Davlat xizmatchisi faoliyat yuritishining zarur ijtimoiy va moddiy shart-sharoitlari aniqlandi, shuningdek, qonunchilik mehyorlariga muvofiq tarzda xizmat shakllarini huquqiy tartibga solish, mehnat intizomini tahminlash, lavozim, burch, vazifa va majburiyatlarining mohiyati oydinlashtirildi;

3. Davlat idoralarining xalqqa xizmat qilishi tamoyili asosida davlat xizmati kadrlarining faoliyati, burch va vazifalari, majburiyat va intizomi ularda xalq bilan ochiq muloqotlar o'tkazish, muammolarning tezkor yechimini topish ko'nikmalarini shakllantirdi va bu tizimli jarayonga aylandi. Mamlakatimizda turli sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, fuqarolar uchun yaratilgan shart-sharoit, mavjud kamchiliklarni o'rganish va belgilangan tartibda hal qilish maqsadida "Elektron murojaat" tizimi joriy etildi;

4. Yangi davr davlat xizmati - xizmat sohalari tartibining bugungi kun ehtiyojlariga javob beradigan tizim yaratishni taqozo qiladi. Shu maqsadda "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, Davlat xizmatlari agentligi va hududlarda markazlari tashkil etildi va davlat xizmatlarini ko'rsatish elektron tarzda "fuqarolik emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyili asosida olib borilmoqda;

5. Davlat xizmati sohasiga oid tushunchalar mazmun-mohiyatini o'qitish, oliy tahlil muassasalarida alohida fanlar bo'yicha yo'lga qo'yilishi, unda xizmat ko'rsatish va xizmatdan foydalanish, egallanayotgan kasb (fan emas) bo'yicha xizmat xususiyatlari, qonun-qoidalari va boshqalar bo'yicha keng ma'lumotlarni qamrab olinishi muhim hisoblanadi. Davlat xizmati kadrlarini tayyorlashda, avvalo, shu soha tahlimini tashkil etuvchi pedagog kadrlarga, so'ng o'quv manbalariga ehtiyoj seziladi. Mazkur muammoni ehtiborga olib, dastlabki bosqichda tayanch oliy ta'lim muassasalarida birinchi navbatda magistrlik mutaxassisliklari tashkil etish va ixtisoslashgan kafedralar faoliyatini yo'lga qo'yish talab etiladi;

6. Davlat xizmati, avvalo, mehnat faoliyatining majburiyatlari bilan bog'liq. Xizmat turlari bo'yicha majburiyat me'yorlari va ularning mezonlarini ishlab chiqish, har bir xizmat sohasida faoliyatning tartibli tashkil etilishida muhim rol o'ynaydi, bu o'z navbatida mehnat intizomiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, davlat xizmatining struktura va faoliyat yo'nalishlari, ijtimoiy-iqtisodiy mavqe va moliyaviy me'yorlar masalalaridagi xorijiy tajribalarni yanada kengroq o'rganish mumkin;

7. Davlat xizmatchisi boshqaruvning umumiy tamoyillari va mezonlarini, uni amalga oshirish mexanizmi, metodologiyasi va turlarini bilishi zarur. Chunki, u o'z namunasida fuqarolarga sinovlarga bardosh berish, fidoiylilik, tadbirkorlik, tashabbuskorlik va jamoaviylikni o'rgatadi. U ko'rsatgan ibrat odamlarga kuch-quvvat bag'ishlaydi, irodasini mustahkam qiladi ham bir-birlariga, ham davlat siyosatiga mehru oqibatini oshiradi. Bu jihatlarga ko'ra davlat xizmatchisi jamiyatda tarbiyachilik rolini bajarib, ularning amalga oshirgan ishlari xalqimiz kelajagi va orzu-niyatlarini ro'yobga chiqarishdek oliy maqsadimizni amalga oshirishga xizmat qilishi muqarrardir.

Maqolada keltirilgan ma'lumotlar, ilmiy tahlillar va xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi tinglovchilari va oliy o'quv yurtlari talabalari uchun "Siyosatshunoslikka kirish", "Davlat xizmati", "Davlat fuqarolik xizmati", "Davlat boshqaruvi", "Amaliy siyosatshunoslik", "Boshqaruvda qarorlar qabul qilish", "Personal boshqaruv", "Fuqarolik jamiyati", "Mahalliy boshqaruv", "Xorijiy mamlakatlarda davlat boshqaruvi tarixi", "Davlat xizmatchisi etikasi va imiji", "Boshqaruv etikasi" hamda shu kabi boshqa fanlardan tegishli mavzularni o'qitishda, ma'ruza matnlari yaratish va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda ilmiy manba sifatida samarali foydalanish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RBQ-788-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/6145972>

2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз. –Т.: Ўзбекистон, 2017. 21-бет.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomalari. –Т.: O'zbekiston, 2017, 2018, 2020, 2022 yillar. www.prezident.uz

4. Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5308-sonli Farmoni. Ma'rifat gazetasi, 24.01.2018 yil, № 7.(9072) 3-bet.

5. Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlar agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3430-son Qarori, 2017-yil 12-dekabrda "Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5278-son Farmoni, 2019-yil 3-oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4472-son Qarori. www.lex.uz.

6. www.prezident.uz

7. www.lex.uz

8. www.dba.uz